



XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 18-may

VII-27-59-7-102-K/26

Paxtachi tumani

Paxtachi tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i S.Saidovning 2026-yil 3 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi tomonidan 2026-yil 3 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limining 2026-yil 12-maydagi 24/1-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma yettinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Paxtachi tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi tomonidan 2026-yil 3 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i S.Saidovning hisoboti qoniqarli ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

2. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (S.Saidov)ga:

- aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha tizimli targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- "Yashil makon" loyihasi doirasida ko'chat ekish ishlarini jadallashtirish va elektron platformaga to'liq kiritilishini ta'minlash;

- mahallalarda ekologik nazorat jamoatchi inspektorlarini shakllantirish va ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (S.Saidov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Shermatov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

- chiqindi qutilarini belgilangan joylarga o‘rnatish va ularning muntazam bo‘shatilishini ta‘minlash;

- chiqindilarni noqonuniy joylashtirish holatlariga barham berish bo‘yicha “Mansurbek Qo‘rg‘oni Biznes” MCHJ bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- chiqindi poligonlarining muhofaza zonasini mustahkamlash va sanitariya talablariga rioya etilishini ta‘minlash;

- aholiga chiqindilarni saralash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berish yuzasidan metodik ishlarni yo‘lga qo‘yish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (S.Saidov) tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda:

- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasining 2026-yilda amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta‘minlash;

- aholining ekologik madaniyatini oshirish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e‘tibor qaratgan holda keng ko‘lamli targ‘ibot faoliyatini tashkil etish ishlarini kuchaytirish topshirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan o‘zlari saylangan hududlarda aholi bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar jarayonida fuqarolarga atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘lishga jalb etib, daraxtlar ekish, gullarni ko‘paytirish, hududni cho‘llanishdan asrash bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Husanov)ga fuqarolarni obodonlashtirish ishlariga befarq bo‘lmaslik, ko‘kalamzorlashtirish ishlariga atrof-muhitni asrash va tozalikka rioya qilish yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ibot olib borilishi tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Musirmanov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (S.Qilichev) zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



**ESHONKULOV
ELDOR
UKTAMOVICH**



2026-yil "12" may

24/1 son

Paxtachi t.

Xalq deputatlari Paxtachi tuman
Kengashi raisi E.O'.Eshonqulovga

Tuman Ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i S.B.Sayidovning
Paxtachi tumani hududida 2026-yil 1-chorakda amalga oshirilgan ishlari
to'g'risida Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashiga

HISOBOTI

Assalom aleykum Eldor O'ktamovich Eshonqulov
deputatlar va sessiya ishtirokchilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 18-noyabrdagi PQ-343 qarori bilan tasdiqlangan va belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda Paxtachi tumani Ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'limida sohaga oid qonun talablari ijrosi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida tuman bo'limida 4 nafar davlat inspektorlari faoliyat olib bormoqda.

2026-yil 1-chorakda davomida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar ijrosi yuzasidan davlat inspektorlari tomonidan o'tkazilgan kuzatuv reytd tadbirlari natijasida 132 nafar xuquqbuzarlik holati aniqlanib quzq'atilgan ma'muriy ish materiallari yuzasidan 208.472.000 (ikki yuz sakkiz million turtyuz yettmish ikki) ming so'm miqdorda jarimalar solinib undirib olingan.

Yunalishlar kesimida.

1.Chiqindi yunalishi bo'yicha MJtKning 91-95 moddalar bilan jami 35 ta xuquqbuzarlik aniqlanib 18.540.000 (un olti million oltish sakkiz ming) sum jarima solinib undirilgan.

2.Atmosfera yunalish bo'yicha MJtKning 88-moddalari bilan jami 42 ta xuquqbuzarlik aniqlanib 22.660.000 (yegirma ikki million olti yuz oltish) so'm jarima solinib undirilgan.

3.Suv va yer osti boyliklari yunalishi bo'yicha MJtKning 72-70-82 moddalar bilan jami 45 ta xuquqbuzarlik aniqlanib 114.124.000 (bir yuz un to'rt million bir yuz yegirma turt) ming so'm jarima va zarar 20.088.000 (yigirma million sakkiz) ming so'm undirilgan.

4.O'simlik va Xayvonot dunyosi yo'nalishi bo'yicha 79-92-modda 10 ta xuquqbuzarlik holati aniqlanib 53.148.000 (ellik uch million bir yuz qirsakkiz)

so'm jarima va 21830.000 (yegirma bir million sakkiz yuz uttiz ming) zarar qullanilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi 202-sonli qaroriga asosan tumanda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga faoliyati davomida atrof-muhitni ifloslantirganligi va chiqindilar joylashtirganligi uchun 1012 ta xo'jalik yurituvchi subyektlardan 1-chorak uchun 2.960.0000 (ikki milliard tuqqiz yuz oltish) ming so'm kompensatsiya to'lovlar va berilgan prognoz reja 145% foizga bajarilgan.

“Yashil makon” umummilliy loyixasi doirasida 2026 yil bahor mavsumida jami 422 ming tup mevali va manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekilib, rejaga nisbatan 102% ga bajarilgan bo'lsada 2026-yil bahor mavsumida Yashil makon umummilliy loyihasi asosida tuman hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan manzilli dasturi asosida berilgan 200-tup rejani tuman arxiv bo'limiga berilgan bo'lishiga qaramasdan daraxt ko'chatlari ekilgani to'g'risida tuman hokimligida tashkil etilgan yashil makon shtabiga ma'lumot taqdim etilmagan. Paxtachi dexqon bozori MCHJga 710 tup mevali manzarali daraxt ko'chatlari ekish rejasi berilgan yashil makon shtabiga ma'lumot taqdim etilmagan. Payshanba Dexqon bozori MCHJ ga 710 tup mevali manzarali daraxt ko'chatlari ekish rejasi berilgan bo'lib yashil makon shtabiga ma'lumot taqdim etilmagan, ATB Agro bank tuman filialiga 350 tup mevali manzarali daraxt ko'chatlari ekish rejasi berilgan bo'lib shundan 150-tup manzarali daraxt ko'chatlarini Amir Temur mahallasi hududiga ekilib qolgan 200-tup ko'chatlarini ekmagan. ATB Xalq banki tuman fillialiga 200 tup mevali manzarali daraxt ko'chat ekish rejasi umuman bajarmaganligi sababli tuman Ekologiya bo'limi tomonidan tuman hokimligiga tuman Prokuraturasiga yuqoridagi nomlari keltirilgan tashkilot xabarlarini tomonidan Prezident Qarorini bajarmaganligi sababli edo tizimi orqali 5 marotaba bildirish xatlari berilgan.

Davlat inspektorlari tomonidan tumanda Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish qonun talablari ijrosi yuzasidan “M.Ulug'bek”, “Qirguli”, “Zarafshon”, “Burqut”, “Toma” va “Mojor” mahallalari hududlarida hosil bo'lgan noqonuniy chiqindixonalar Davlat inspektorlari tomonidan ko'zatuv reydi davomida aniqlanib maxsus texnikalar jalb qilingan holda bartaraf etilib, bu kabi holatlar takrorlanmaslik borasida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borildi. 2026-yil 1-chorak Paxtachi tumanida temir yo'l hududida noqonuniy 3 ta chiqindixona aniqlanib davlat inspektorlari tomonidan maxsus texnika jalb etilib chiqindilar bartaraf etildi va 1-chorak davomida chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish to'g'risidagi qonun talablari ijrosi yuzasidan ko'zatuv reydi tadbirlari amalga oshirilib 19 nafar huquqbuzarlik aniqlanib ma'muriy ishlar qo'zg'atilgan. O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan

bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni etirof etish to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 9-aprelda qabul qilingan 937 sonli qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil 1-chorakda arizalar jami 588 ta arizalar o'rganib chiqilib xulosalar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 282-sonli qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil 1-chorakda 7 ta arizalar kelib tushgan bo'lib barchasiga ijobiy xulosalar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida YerElektron ATT tizimi orqali 2026 yil 1-chorakda jami 22 ta arizalar kelib tushgan 17-tasiga xulosalar berilgan 5-tasiga rad etilgan. Jumladan 2026-yil 3 oy davomida Yuridek va Jismoniy shaxslar tamonidan jami 24 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib joyiga borib o'rganilganda 18 ta murojaat ijobiy bartaraf qilinib 6 tasiga huquqiy tushunchalar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31-maydagi PF-81-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tumanida Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I-II toifaga mansub sanoat korxonalarida 2026-yil 1-martga qadar o'z hududlarida fon monitoring stansiyalari o'rnatish va ularni Ekologiya Qo'mitasining ekologik monitoring milliy markaziga integrasiya qilish, bo'yicha ko'rsatma xatlar berilib 2026-yil 1-martdan boshlab belgilangan muddatda fon monitoring stansiyalari o'rnatmagan va ularni Ekologiya Qo'mitasining ekologik monitoring milliy markaziga integrasiya qilmagan I-II toifaga mansub sanoat korxonalariga nisbatan kompensasiya to'lovlarini 1 martdan 5 baravar va 1-iyuldan 10 baravargacha oshirilgan holda qo'llash tartibi joriy etilishini Ekofund tizimi amalga oshirilishi taminlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiya 2025-yil 25-iyundagi 08/15-sonli topshirig'iga asosan tumanda jami 1239 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat ro'yxatdan o'tgan bo'lib shundan bugungi kungacha 863 tasi xatlovdan o'tkazilib kompensatsiya to'lovlariga jalb qilinib undirish ishlari olib borilmoqda va 376 ta korxonalar yil oxirigacha xatlovdan o'kaziladi va Davlat Ekologik ekspertizasi ijobiy xulosasi asosida faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi aks holda belgilanmagan talablar bajarmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtK ning 197⁶-moddasi bilan ma'muriy ish quzg'atilib iqtisodiy sudga davo arizalar kiritilib xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyati vaqtincha tuxtatishgacha bo'lgan choralari ko'riladi. Ekologiya va iqlim o'zgarish bo'limining asosiy vazifasi tumanda yashilik darajasini 2030-yilga qadar 30%ga yetkazish, tumanda Chiqindisiz muhitni yaratish, tumanda Ekologik madaniyatni oshirish, tabiiy resurslarda oqilona foydalanishni tashkil etish, jamoatchilik nazoratni kuchaytirish, va boshqalarni amalga oshirishda, Prezident Formonlari Vazirlar Mahkamasi qarorlar, Qo'mita, Boshqarma topshiriqlarini bajarilishni taminlashdan iborat.

Bo'lim boshlig'i:



S.B.Sayidov